


## Farg'ona viloyatining TAShQI SAVDO AYLANMASI

(2019 yil yanvar-fevral)

2019 yil yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, viloyatimizda tashqi savdo aylanmasi 212,9 mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 17,9 %ga o'sdi. Shu jumladan, eksport hajmi 63,9 mln. AQSh dollarga (3,6 %ga o'sgan) va import hajmi 148,9 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati 25,9 %ga) yetdi. Tashqi savdo saldosi minus 85,0`mln. AQSh dollarini tashkil qildi.


### Farg'ona viloyati tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSh dollari)



So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi. Jumladan, xom-ashyo eksportidan, qo'shilgan

qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo'naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

**2018-2019 yillarda tovar va xizmatlarning eksport-import ko'rsatkichlari dinamikasi**  
*(mln. AQSh dollar)*



2019 yil yanvar-fevral oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi joriy yilning yanvar oyida ham o'tgan yilning mos davriga nisbatan deyarli o'zgarishsiz qolmoqda.

**Viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar**

*(mln. AQSh dollar)*

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, %
Xitoy	48,3	16,1	39,2	22,7
Qozog'iston	41,3	2,0	39,2	19,4
Rossiya	48,3	13,7	34,5	22,7
Turkiya	15,5	10,7	4,7	7,3
Latviya	3,1	0,1	2,9	1,5
Koreya Respublikasi	5,0	0,9	4,1	2,4
Qirg'iziston	7,4	3,9	3,4	3,5

*(mln. AQSh dollar)*

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, %
<b>Polsha</b>	4,6	3,4	1,2	2,2
<b>Tojikiston</b>	4,0	1,6	2,4	1,9
<b>Bangladesh</b>	3,4	3,4	-	1,6
<b>Litva</b>	2,4	0,1	2,3	1,2
<b>Vietnam</b>	2,1	2,1	-	1,0
<b>Ukraina</b>	4,5	2,0	2,5	2,1
<b>Belarus</b>	1,1	0,2	0,9	0,6
<b>Misr</b>	1,1	1,1	-	0,5
<b>Eron</b>	0,9	0,3	0,6	0,5
<b>Italiya</b>	0,7	0,07	0,7	0,4
<b>Chexiya Germaniya</b>	0,3	0,1	0,2	0,2
<b>Marokko</b>	0,1	0,1	-	0,1

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019 yil yanvar-fevral oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 51,2 %ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,2 martaga oshdi. Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2019 yilning yanvar-fevral oylarida 1,8 % oshgan bo'lsa, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 48,8 %ga yetdi.


## **EKSPORT**

2019 yil yanvar yanvar-fevral oylarida eksport hajmi 63,9 mln. AQSh dollarga (3,6 % ga o'sgan) teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 98,0 % ulushga ega, bular asosan oziq-ovqat mahsulotlari (21,8 %), energiya manbaalari va neft


mahsulotlari (3,1 %), shuningdek, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (1,0 %) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi**  
*(mln.AQSh dollar)*

**2018 Yil  
yanvar-fevral**



**2019 Yil  
yanvar-fevral**




- █ paxta tolasi
- █ oziq-ovqat mahsulotlari
- █ kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar
- █ Energiya manbalari va neft mahsulotlari
- █ qora va rangli metallar
- █ Xizmatlar
- █ Boshqalar

- █ Paxta tolasi
- █ Oziq-ovqat mahsulotlari
- █ Kimyo mahsulotlari va buyumlari
- █ Energiya manbaalari va neft mahsulotlari
- █ Qora va rangli metallar
- █ Xizmatlar
- █ Boshqalar

**Eksport tarkibi**

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmiga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmiga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmiga nisbatan, %
<b>Eksport</b>	<b>63,9</b>	<b>103,6</b>	<b>100</b>	<b>10,3</b>	<b>122,2</b>	<b>100</b>	<b>19,7</b>	<b>85,7</b>	<b>100</b>
<b>Paxta tolasi</b>	0,0	0,0	0,0	00	00	00	0,0	0,0	0,0
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	13,5	253,6	21,2	2,9	334,2	28,7	3,3	159,2	17,2
<b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>	0,6	140,2	1,0	0,1	168,9	1,8	0,0	0,0	0,0
<b>Energiya manbaalari va neft mahsulotlari</b>	1,9	160,9	3,3	0,6	2,0 m	5,7	0,4	100	2,1
<b>Qora va rangli metallar</b>	9,1	175,0	0,01	0,006	100,0	0,1	0,0	0,0	0,0
<b>Mashina va asbob - uskunalar</b>	0,06	144,5	0,1	0,03	3,7 m	0,3	0,03	5,6 m	0,11
<b>Xizmatlar</b>	<b>1,2</b>	<b>162,2</b>	<b>2,0</b>	<b>0,6</b>	<b>1,9 m</b>	<b>5,5</b>	<b>0,1</b>	<b>1,6 m</b>	<b>0,6</b>
<b>Boshqalar</b>	<b>46,4</b>	<b>86,2</b>	<b>72,6</b>	<b>5,9</b>	<b>87,2</b>	<b>58,0</b>	<b>15,8</b>	<b>76,4</b>	<b>80,0</b>

**Tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari**  
*(o'tgan yilga nisbatan, %)*




Shuningdek, tovar va xizmatlar eksporti o'sish sur'atlaring tahliliga asosan, 2019 yilning yanvar-fevral oylarida eksport qilingan tovar va xizmatlar o'tgan yilgning yanvar-fevral oylariga nisbatan 103,6 %ga oshgan.


Xizmatlar eksporti hajmi 1,2 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 2,0 % ini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,6 martaga ko'payganligi kuzatildi.

Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari hamda moliyaviy xizmatlar hissasiga to'g'ri keladi.

**2018-2019 yillarda tovarlar va xizmatlar eksporti**  
 (oylar kesimida, mln. AQSh dollarri)



**Viloyat eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi**  
 (yanvar-fevral)



Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 46,7 % ini tashkil qiladi. Xitoy Xalq Respublikasi va Rossiya Federatsiyasiga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan energiya manbaalari va neft mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

**Farg'ona viloyatining  
asosiy hamkor davlatlarga amalga oshirgan eksport hajmi**

Davlat nomi	Mln. AQSh doll.		Ulushi, %		O'rni	
	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.
Rossiya	15,1	13,7	24,5	21,5	1	2
Xitoy	14,9	16,1	24,1	25,3	2	1
Qozog'iston	1,2	2,0	3,0	3,2	9	8
Kirg'iziston	1,8	3,9	3,0	6,2	8	4
Turkiya	7,8	10,7	12,7	16,9	3	3
Bangladesh	5,5	3,4	8,9	5,5	4	5
Koreya Respublikasi	2,8	0,9	4,6	1,4	6	12
Polsha	3,5	3,4	5,7	5,4	5	6
Tadzhikistan	0,2	1,6	0,3	2,6	19	10
Vietnam	0,04	2,1	0,1	3,3	36	7
Ukraina	0,5	2,0	0,9	3,1	11	9
Belarus	0,3	0,2	0,6	0,4	15	15
Latviya	0,1	0,1	0,2	0,3	25	18
Litva	0,2	0,1	0,3	0,3	22	17
Marocco	0,1	0,1	0,3	0,3	23	19
Afg'oniston	2,3	0,2	3,9	0,4	7	14
Eron	0,1	0,3	0,2	0,5	28	13
Misr	0,0	1,1	0,0	1,8	-	11
Gonkong	0,8	0,1	1,4	0,3	10	20
Chexiya Respublikasi	0,3	0,1	0,6	0,3	16	16

**Farg'ona viloyatining ayrim davlatlar  
bilan eksport tarkibi  
(yanvar-fevral)**

*ming. AQSh doll.)*

	Rossiya Respublikasi		Qozoqiston Respublikasi	
	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.
<b>Jami eksport</b>	<b>15114,5</b>	<b>13746,0</b>	<b>1238,6</b>	<b>2028,7</b>
Paxta tolasi	-	-	-	-
Oziq-ovqat mahsulotlari	795,1	870,6	347,3	1473,2
Kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan buyumlar	19,9	16,2	89,4	-
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	-	493,1	319,7	232,3
Qora va rangli metallar	-	-	-	6,5
Mashina va uskunalar	24,5	23,6	-	3,1
Xizmatlar	556,4	1058,9	0,1	5,5
Boshqalar	13718,3	11283,6	482,0	308,1

**Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti**

2019 yilning yanvar-fevral oylarida jami 15,1 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 7,3 mln. AQSh dollariga eksport qilindi (o'sish sur'ati 1,4 martaga ko`paygan). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2019 yilning fevral oyida 11,4 ming tonnadan ko'proq sabzavotlar 3,0 mln. AQSh dollariga yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,2 ming tonnaga ko'p miqdorda eksport qilingan.

Shuningdek, 2,3 ming tonna meva va rezavorlar 2,7 mln. AQSh dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,4 ming tonnaga ko'pdir.

**Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi**


Shuni aytib o'tish joizki, mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2019 yilning yanvar-fevral oylarida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 5,7 mln.AQSh dollariga yetdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,1 martaga ko'paygan.).

**Viloyatimizda yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport geografiyasi**


Davlat nomi	2018 yil yanvar-fevral			2019 yil yanvar-fevral		
	Ming. tonna	Ming. AQSh,doll	Ulushi, %	Ming. tonna	Ming. AQSh,doll	Ulushi, %
Qozoqiston	559,0	318,0	6,3	4558,7	1438,0	19,6

	Rossiya	906,4	692,5	13,7	936,2	735,9	8,8
	Qirg'iziston	1794,0	734,7	14,5	3276,9	2787,1	38,0
	Xitoy	76,6	64,8	1,3	25,5	24,4	0,3
	Turkiya	116,0	78,7	1,6	382,2	308,8	4,2
	Ukraina	75,2	97,0	1,9	4719,6	1460,5	19,9

## IMPORT

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida import hajmi 148,9 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati 125,4 % ) teng bo'ldi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (26,7%), energiya manbalari va neft maxsulotlari (15,8), oziq-ovqat mahsulotlari (21,8 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (11,0 %) hamda boshqalar hisobiga to'g'ri keldi(16,9%).

### Tovar va xizmatlar importi tarkibi (mln.AQSh dollar)




**Import tarkibi**

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiylajmaga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiylajmaga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiylajmaga nisbatan, %
<b>Import</b>	<b>148,9</b>	<b>125,4</b>	<b>100,0</b>	<b>85,3</b>	<b>104,0</b>	<b>100,0</b>	<b>63,6</b>	<b>173,0</b>	<b>100,0</b>
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	32,4	600,6	20,8	29,4	1113,3	34,5	3,0	110,4	4,8
<b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>	16,3	171,1	12,1	4,7	165,8	5,6	11,5	173,4	18,2
<b>Energiya manbaalari va neft mahsulotlari</b>	23,5	38,9	21,7	23,5	38,8	27,6	0,07	223,0	0,1
<b>Qora va rangli metallar</b>	10,7	196,6	3,6	6,8	344,7	8,0	3,9	112,4	6,2
<b>Mashina va asbob-uskunalar</b>	39,8	213,8	25,9	2,3	374,7	2,8	37,4	208,2	58,8
<b>Xizmatlar</b>	0,8	128,9	0,2	0,01	188,0	0,0	0,8	128,2	1,3
<b>Boshqalar</b>	25,1	136,4	12,1	18,3	138,8	21,5	6,7	130,4	10,6

Import qilingan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-fevral oylari davomida eng yuqori o'sish sur'atlari kuzatilgan.

**Tovarlar va xizmatlar importining o'sish sur'atlari dinamikasi  
(o'tgan yilga nisbatan, %)**



Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning fevral oylarida import qilingan tovar va xizmatlar yanvar oyiga nisbatan 125,4 %ga kamaygan.

#### **Farg'ona viloyatiga asosiy hamkor davlatlardan amalga oshirilgan import hajmi**

Davlat nomi	Mln. AQSh dollar.		Ulushi, %		O'rni	
	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.	2018 y.	2019 y.
Rossiya	70,1	34,5	59,1	23,2	1	2
Xitoy	25,3	32,2	21,4	21,6	2	3
Qozog'iston	5,5	39,2	4,7	26,4	3	1
Latviya	1,2	2,9	1,0	2,0	9	8
Koreya	3,3	4,1	2,8	2,8	5	6
Germaniya	1,2	7,9	1,1	5,4	8	4
Turtsiya	2,8	4,7	2,4	3,2	6	5
Litva	0,2	2,2	0,2	1,5	11	11


<b>Tadjikistan</b>	1,5	2,4	1,3	1,6	7	10
<b>Ozarbayjon</b>	-	1,6	-	1,1	-	12
<b>Qirgizsiton</b>	-	3,4	-	2,3	-	7
<b>Tayvan</b>	0,05	1,1	0,01	0,7	31	14
<b>Niderlandiya</b>	0,05	0,9	0,1	0,7	27	15
<b>Polsha</b>	0,2	1,2	0,2	0,8	12	13
<b>Hindiston</b>	0,1	0,7	0,1	0,5	17	17
<b>Ukraina</b>	0,06	2,5	0,1	1,7	25	9
<b>Belarus</b>	1,8	0,9	0,2	0,6	13	16
<b>Italiya</b>	0,1	0,7	0,1	0,5	15	19
<b>Yaponiya</b>	0,02	0,7	0,1	0,5	36	18
<b>Serbiya</b>	-	0,6	-	0,5	-	20

### Xizmatlar importi tarkibi, (%)

2019 yil yanvar-fevral

Xizmatlar importi hajmi 0,840 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 0,6 % ini tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 128,9 %ga o'sdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi turizm xizmatlari, transport xizmatlari, qurilish xizmatlari va telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlaridan iborat bo'ldi.


**2018-2019 yillarda tovarlar va xizmatlar importi dinamikasi**  
(oyda, mln. AQSh dolları)



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019 yilning o'tgan davri mobaynida viloyatga import qilinayotgan tovar va xizmatlar yanvar-fevral oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan 30,1 mln. AQSh dollarga ko'p import qilindi va 148,9 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

**Viloyat importida asosiy  
hamkor davlatlarning ulushi  
(yanvar-fevral)**

**2019 yil**



2019 yilning yanvar-fevral oylarida viloyatimizga 41 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 5 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Qozog'iston va Qirg'iziston hamkor davlatlaridan jami import hajmi 126,4 mln. AQSh dollariga teng.

Bu esa umumiy import hajmining 84,8 % ni tashkil qiladi

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel.:71-230-87-18**